MAKTABGACHA TA'LIM TASHKILOTLARIDA PEDAGOGIK JARAYONLARDA ZAMONAVIY TEXNOLOGIYALARNI JORIY ETISH

https://doi.org/10.70728/conf.edu.v3.i1.032

Temirova Shahloxon Xoshimjon qizi
Farg 'ona Davlat Universiteti
Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi
(maktabgacha ta'lim)mutaxasisligi 2-bosqich magistranti
shahlotemirova96@gmail.com TEL:+998905609633

Annotatsiya: Ushbu tezisda hozirgi kunda bizning yurtimizda yuz berayotgan maktabgacha ta'lim tizimidagi o'zgarishlar ,islohotlar haqida so'z yuritilgan .Yaqin 10 yilga ortga qarasak, maktabgacha ta'lim tizimidagi o'zgarishlar hayratlanarli darajada.Maktabgacha ta'lim tashkilotlarining soni oshib bormoqda,tarbiyalanuvchilar qamrov darajasi esa ko'paymoqda.O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev Miromonovichning tashabbuslari bilan maktabgacha ta'lim tashkilotlari qayta ta'mirlandi,yangidan barpo etildi.Yangi Renessans,Yangi O'zbekiston barpo bo'lmoqda. Darhaqiqat, ,,Dunyoda hech qachon bir xil tong otgan emas.Ayni shu nuqtai nazardan qaraganda,xalqlar tarixida o'ziga xos tub yangilanishlar,islohotlar olib borilgan.Tezis matnida maktabgachga ta'lim tizimida bo'layotgan o'zgarishlar va yangiliklar haqida ko'plab ma'lumotlar mavjud.

Kalit so'zlar: Farmon va Qarorlar, Maktabgacha ta'lim tizimi, pedagoglarining ish hujjatlari, ijodiy hamda ijtimoiy rivojlanish, TRIZ texnologiyasi, o'yin, ijodiy, o'quv faoliyati va muloqot.

Yangi O'zbekistonda pedagoglar uchun qator imkoniyatlar eshigi ochildi.Bu tizim yuksalishi uchun bir qator Farmon va Qarorlar qabul qilindi.O'zbekiston Respublikasi Preizidentining 2019-yil 8-maydagi PQ-4312-son ,, O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha ta'lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish Konsepsiyasi''ni tasdiqlash to'g'risidagi Qarori, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 13-maydagidagi 391-son,, Maktabgacha ta'lim tashkilotlari faoliyatini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida''gi Farmoni,2025-yil 28-avgustdagi Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligining 323-sonli ,,Maktabgacha ta'lim tashkiloti pedagoglarining ish hujjatlari tasdiqlash to'g'risi''dagi Qarori Maktabgacha ta'lim sohasining sifatini oshirish va bolalarning intellektual, ijodiy hamda ijtimoiy rivojlanishini ta'minlashga qaratilgan Qaror va Farmonlardir. Bugungi kunda Prezidentimiz tomonidan amalga oshirilayotgan islohotlar Maktabgacha ta'lim sohasini yuqori cho'qqilarga yetaklamoqda O'zbekiston Respublikasida maktabgacha ta'lim sohasining rivojlanishi Prezident qarorlari va davlat dasturlari orqali qo'llab-

quvvatlanmoqda. Jumladan, 2020 yil 18- sentyabrdagi Prezident qarori bilan maktabgacha ta’lim tizimi ustuvor yo‘nalish sifatida belgilandi, pedagoglarning malakasini oshirish, innovatsion texnologiyalarni joriy etish va bolalarning kognitiv rivojlanishini ta’minlash chora-tadbirlari belgilandi. Bolaning dastlabki ta’limiy tajribalari uning keyingi o‘rta va oliy ta’limdagi muvaffaqiyatini belgilaydi. Shu bois, Maktabgacha ta’lim tizimini yuksak cho’qqilarga olib chiqish,maktabgacha yoshdagi boalarni har tomonlama intelekktual va tafakkuri o’tkir qilib tarbiyalash muhim hisoblanadi.Maktabgacha ta’lim tashkilotlarida pedagogik jarayonlarda zamonaviy texnologiyalarni joriy etish va innovatsion metodlarni qo‘llash muhim ahamiyatga ega.Steam texnologiyasi,Voskobovich,Tangram, TRIZ texnologiyasi kabi texnologiyalarni qo’llash muammolarni tizimli va ijodiy yechimlar asosida hal etish imkonini beradi, bu esa bolalarda mantiqiy fikrlashni, tafakkur moslashuvchanligini va muammolarni mustaqil hal etish qobiliyatini shakllantirishga yordam beradi. Shu nuqtai nazardan, TRIZ texnologiyalarini maktabgacha ta’lim tizimida qo‘llashning ilmiy asoslangan metodikasi va samaradorligini tadqiq etish bugungi pedagogik jarayonda dolzarb ilmiy masala sifatida ko‘riladi. Shu asosda, TRIZ texnologiyalarini maktabgacha ta’lim jarayoniga joriy etish nafaqat pedagogik jarayon sifatini oshirish, balki bolalarning intellektual va ijodiy rivojlanishini tizimli ravishda qo‘llab-quvvatlashga xizmat qiladi. Shu bois, ushbu dissertatsiya mavzusi ilmiy va amaliy jihatdan yuqori dolzarblikka ega bo‘lib, maktabgacha ta’lim tizimida innovatsion yondashuvlarni samarali tadqiq etish va metodik tavsiyalar ishlab chiqishga imkon yaratadi. Bugungi kunda ta’lim tizimida islohotlar chuqurlashib borayotgani sababli, maktabgacha ta’lim muassasalari oldida nafaqat bolalar bilan ishlashning yangi mazmuni, balki o‘z faoliyatini jamiyat oldida **qanday ko‘rsatish**, ya’ni **ijobiy imij yaratish** vazifasi ham paydo bo‘lmoqda.Maktabgacha yoshdagi bolalarning intellektual qobiliyatlarini rivojlantirish uchun shart-sharoitlarni yaratish bolaning shaxsiyatining intellektual va ijodiy salohiyatini rivojlantirishning dolzarb muammosidir. Maktabgacha yoshdagi bolalarning intellektual rivojlanishi muammosi uzoq vaqt davomida o'qituvchilar va psixologlar tomonidan maqsadli ravishda o'rganilgan. Maktabgacha yoshda mavzu uchun motivatsiya rivojlanadi - operativ, o'yin, ijodiy, o'quv faoliyati va muloqot, aqliy operatsiyalarning kognitiv salohiyati shakllanadi Bularning barchasi Renessans davridan Yangi O’zbekistonimiz yuksalayotganidan darak beradi.Yangi O’zbekiston tushunchasida mujassam bo’lgan xalq orzusi tarixiy tarqaqqiyotning barcha davrlarida millatning yetuk vakillarini uni ro’yobga chiqarish yo’lida amaliy xarakatlarga undab keldi.Prezidentimiz aytadilar; “Dunyoda isbot talab qilmaydigan bir haqiqat bor: har qanday mamlakat taraqqiyoti sog‘lom va bilimli avlodga bog’liq‘‘**maktabgacha ta’lim qamrovi va mablag‘lar, tarbiyachi maoshlari hamda tizimdagi islohotlar**lar yo’lidagi sayi arakatlar belgisidir. Bog‘cha tarbiyachilari oyligi 65 foizga oshib, maktab o‘qituvchilari maoshiga tenglashdi.Maktabgacha ta’lim tizimi Assetsatsiya imtixonlarida qatnashib 86 va undan yuqori bal to’plagan pedagog

xodimlarninh har oylik maoshlariga 70% lik ustamalar joriy qilindi.Bu pedagoglarga berilayotgan e'tibor bu tizimga yanayam hissamizni qo'shishga,yuksak darajaga olib chiqishga undaydi *Biz maktabgacha, maktab, oliy va ilmiy ta'lim tizimlarini yangi Renasans davri qurilishining to'rtta uzviy bo'g'ini deb bilamiz… Maktabgacha ta'lim sohasini ilg'or mexanizmlar bilan rivojlantirish muhim vazifa bo'lib qolmoqda."* **maktabgacha ta'lim tizimining ahamiyati, uning boshqa ta'lim bosqichlari bilan bog'liqligi va sohani rivojlantirish bo'yicha ko'rsatmalarini** qayta tasdiqladi. 2025-yil 8-iyul kuni O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 423-son qarori bilan Maktabgacha ta'lim tashkiloti pedagogining kasbiy standarti rasman tasdiqlandi.Mazkur standart:

- pedagoglarning shaxsiy fazilatlari, bilim va ko'nikmalariga qo'yiladigan asosiy talablarni;

-kasbiy standartni MTT faoliyatida qo'llash tartibini;

-talab etiladigan bilim va ko'nikmalar ro'yxatini o'z ichiga oladi.

Xulosa

Maktabgacha ta'lim tizimi ijtimoiy jihatdan ham katta ahamiyatga ega.Farzandlarimiz tarbiyasida eng asosiy bo'g'in hisoblangan maktabgacha ta'lim tizimining jamiyatimiz xayotidagi o'rni va ahamiyatini hech narsa bilan o'lchab bo'lmaydi.U bolalarni ijtimoiylashuv jarayoniga tayyorlaydi, milliy va umuminsoniy qadriyatlarga hurmat ruhida tarbiyalaydi, sog'lom turmush tarzini shakllantirishga xizmat qiladi. Shu bilan birga, maktabgacha ta'lim ayollarning bandligini ta'minlash, oilaning ijtimoiy-iqtisodiy barqarorligini mustahkamlashda ham muhim omil hisoblanadi.Innovatsion pedagogik texnologiyalar, jumladan **TRIZ, STEAM, Montessori, loyiha va muammoli ta'lim yondashuvlari**ning joriy etilishi maktabgacha ta'lim tizimining sifat va samaradorligini oshirmoqda. Bu texnologiyalar orqali bolalarda muammoli vaziyatlarni tahlil qilish, noodatiy yechimlar topish va ijodiy yondashuvni rivojlantirish imkoniyati kengayadi.Maktabgacha ta'lim tizimi bolalarning dastlabki yoshida rivojlanishini ta'minlovchi eng muhim pedagogik tizim bo'lib, u bolalarning intellektual, ijtimoiy, jismoniy va psixologik salohiyatini shakllantiradi. Shu yosh davrida shakllangan qobiliyatlar insonning keyingi o'quv va kasbiy faoliyatiga bevosita ta'sir qiladi. Pedagogik tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, 0–7 yoshdagi bolalarning **mantiqiy fikrlash, ijodiy yondashuv va muammolarni hal qilish ko'nikmalari** shu davrda rivojlanadi, shuning uchun maktabgacha ta'lim davlat ta'lim siyosatining ustuvor yo'nalishi sifatida e'tiborga loyiqdir.Shu sababdan , maktabgacha ta'lim tizimiga katta e'tibor qaratish,zamonaviy texnologiyalarni qo'llash ,pedagoglarning salohiyatini oshirish zarur.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1.O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M. Mirziyoyev. Yangi O'zbekiston strategiyasi. — Toshkent: O'zbekiston, 2021.

2.O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M. Mirziyoyev. Ta’lim va tarbiya — taraqqiyot poydevori. — Toshkent: O‘zbekiston, 2020.

3.Xodjayev B., Yo‘ldoshev J. Pedagogika va psixologiya asoslari. — Toshkent: Sharq, 2016.

4.Maktabgacha ta’lim vazirligi. “Ilk qadam” davlat o‘quv dasturi. — Toshkent, 2022.

5. O’zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 30-sentyabrdagi PF-152-son Farmoni.

6. O’zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2025-yil 8- iyuldagi ,,Maktabgacha ta’lim tashkiloti pedagogining kasbiy standartini tasdiqlash to’g’risida’’gi qarori.